

## Bo'lajak Boshlang'ich Sinf O'qituvchisining Mantiqiy Tafakkurini Rivojlantirishning Ilmiy – Nazariy Asoslari

*G'aniyeva Maftuna Abduaziz Qizi*

*Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mantiqiy tafakkurini rivojlantirishning zaruriyati, bu jarayonda qo'llaniladigan metodlar xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** mantiqiy fikr, tafakkur, ong, intellektual qobiliyat, pedagogik jamoa, pedagogik qobiliyat.

### KIRISH

Ba'zi ilmiy adabiyotlarda mantiqiy tafakkur, ya'ni mantiqiy fikrlash tushunchasiga quyidagicha izoh berib o'tilgan. Mantiqiy tafakkur bir nechta ma'nolarga ega. Ushbu tushunchalar fikrlashning rivojlanish bosqichlarini, tahlil qilish qobiliyatini, voqelikka munosabatini ifodalaydi.<sup>1</sup>

Bu o'qituvchiga, o'quvchilarning aqliy faoliyatini rag'batlantirish uchun mantiqiy tafakkurni rivojlantirish texnologiyasida foydalanadigan texnikasi va vositalariga bog'liq. Mantiqiy tafakkur "baholash" va "o'z-o'zini baholash", "mantiqiylik" va "o'z-o'zini tahlil qilish", "isbotlash" va "rad etish", "mantiqiy tahlil" kabi tushunchalarni o'z ichiga oladi. Mantiqiy tafakkur madaniyati amalda qo'llaniladigan ishonchli dalillarning usullari va usullarini o'z ichiga oladi. Bularning barchasi shaxsni rivojlantirishga, o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirishga yordam beradi. Judi Bruz va Devid Vud mantiqiy fikrlashni tanqidiy tafakkurning aks ko'rinishini namoyonettiruvchi fikrlash deb bilishadi. Fikrlash o'z "men" ini anglash, ob'ektiv bo'lish, o'z nuqtai nazarini hisobga olgan holda boshqa nuqtai nazarlarni qabul qila olish va ba'zan o'z xurofotlaridan voz kechish orqali shakllanadi. Muammolarni echishda yangi g'oyalarni ilgari surish va ularni yechish yo'llarini ko'rish imkoniyatiga ega bo'lish kerak.<sup>2</sup>

Shu o'rinda bo'lajak pedagoglar xususan umumiy o'rta ta'lim tizimining boshlang'ich ta'lim yo'nalishida faoliyat olib borishi kutilayotgan o'qituvchilarning biz yuqorida so'z yuritayotgan mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning metodik holati dolzarb masalalardan hisoblanadi. Aytish o'rinlik globallashuv, texnogen sivilizatsiya yosh avlod tarbiyasiga ham o'z ta'sirini o'tkazayotgani sir emas, bugungi kun o'quvchisini "o'tmish ertaklari, voqealari" bilan aldab bo'lmaydi, ularni real voqealarga asoslangan ma'lumotlar qiziqtiradi. Aksariyat hollarda bir yoshli bola mobil aloqa vositalaridan foydalana olayotganligini «quvonch» bilan gapiramiz. Demak, bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchisi zamonaviy talablarga javob beradigan ta'lim sohasida kechayotgan yangilanishlarni bilishi, o'z ustida tinmay ishlashi, doimiy o'zgarib turuvchi nostandart sharoitlarda amaliy faoliyatga innovatsion tayyorligini ta'minlash ehtiyojini yuzaga keltirmoqda, bu esa qo'shimcha, noan'anaviy, parallel mustaqil ta'lim tizimlarini yaratishga ehtiyoj tug'dirmoqda.

### ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

A. Ye. Dmitriev va M. R. Levov ta'kidlashlaricha, maktabning dastlabki, boshlang'ich bosqichi bola shaxsini, uning qobiliyatlarini rivojlantiradi, uni muloqotga, ona tiliga, o'qishga, axloqiy, estetik,

<sup>1</sup> Jahongir Xudoyqulov. Mantiqiy tafakkur tushunchasi va uing ta'lim jarayonidagi roli. file:///C:/Users/User/Downloads/tanidiy-tafakkurtushunchasi-va-uning-talim-zharayonidagi-poli.pdf

<sup>2</sup> Jahongir Xudoyqulov. Tanqidiy tafakkur tushunchasi va uing ta'lim jarayonidagi roli. file:///C:/Users/User/Downloads/tanidiy-tafakkurtushunchasi-va-uning-talim-zharayonidagi-poli.pdf

jismoniy madaniyat asoslarini o'rgatadi, tizimli mehnat odatini shakllantiradi. Bolalar tabiat, jamiyat, inson va uning mehnati to'g'risidagi umumiy tasavvurlarni, dunyoqarash asoslarini egallaydilar. Boshlang'ich maktabda ta'lif oluvchilar o'qish, yozishning zarur ko'nikma va malakalarini egallaydilar, atrofdagi olamni kuzatish, o'lhash va hisoblashga o'rganadilar, mantiqiy eslab qolish usullarini, nazariy tafakkur elementlarini, nutq va xulq madaniyati, shaxsiy gigiena va sog'lom turmush tarzi asoslarini egallaydilar. Bolalarda dastlabki qadriyatli yo'naliishlar yuzaga keladi, o'qish motivi shakllanadi, bilimlar, ma'naviy qadriyatlarga mehr singdiriladi. Har bir o'qituvchi mazkur sharoitlarda ishslash, bunday vazifalarni bajarishga tayyorlangan bo'lishi kerak. U shuningdek, zamonaviy bolani, uning ehtiyojlari, qiziqishlarini bilishi, bolalarni va ularning rivojlanish shartsharoitlarini o'rganishning zamonaviy metodlarini egallagan bo'lishi kerak.<sup>3</sup>

Bizning fikrimizcha, yuqorida muammolar orasida eng muhimlari bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mantiqiy tafakkurni shakllantirish, ta'lif jarayoniga teran yondashuv jarayonini modernizatsiya, innovatsiya va novatsiya, innovatsion ta'lif texnologiyalari bilan qurollantirish lozim. Neonologik yondashuv asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish jarayonini mazmunli tashkil qilish tayanch o'quv rejasining qanchalik mustahkam egallanganligiga bog'liq va bu ushbu ta'lif jarayonining metodik ta'minoti va hozirgi holatida o'z aksini topmoqda.

Bilamizki, oliy ta'lif va ijtimoiy sohadagi yangilanishlar asosida ta'lif unsurlari jiddiy o'zgarishlarga uchradi. Shu bois, ta'lif falsafasi, qonuniyatini, mantiqiy va innovation yondashuvlar asosida ta'lif muammolarini qaytadan ko'rib chiqish davr talabiga aylanib bormoqda.

## NATIJALAR

Ayni vaqtida ushbu masalaning to'liq fundamental tadqiqotlar doirasida o'rganilmaganligi va ilmiy faoliyatning ushbu yo'naliishi metodik to'ldirilmaganligi holatiga ko'ra avvalo pedagogik faoliyat va kuzatishlarimiz asosida aytishimiz mumkinki, bo'lg'usi pedagoglar o'z sohasi, kasbi bo'yicha raqobatbardosh bo'lishi uchun zarur bo'lgan tayanch kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim. Fikrimizcha, har bir bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchisi kasbiga sadoqat bilan yondashgan holda:

- intellektual-ijodiy tashabbuslar ko'rsatishi;
- kasbiy bilimlarining kengligi va teranligi;
- mantiqiy tafakkur va intellektual qobiliyatlarga ega bo'lishi;
- turli ziddiyatlarga kretaiv va kognitiv jihatdan ideologik tayyor turishi;
- ijodiy g'oyalarni mantiqiy ketmasetlikda ilgari surish va ularga mantiqiy tafakkur bilan munosabatlar bildira olish;
- yangiliklarga intilish;
- o'zining tajribalarini boshqalarning tajribalari bilan taqqoslagan holda o'zining imkoniyatlari, kamchiliklari va muvaffaqiyatlarini anglab yetishi;
- o'zidagi kreativ jihatlarni anglay olishi;
- o'zini ko'rsata olishi, yangiliklarni amaliyotga olib kirishga tayyor turishi;
- har bir talaba o'z ustida mantiqiy yondashgan holda tinimsiz ishlab, ta'lif jarayonini loyihalashda ta'lif strategiyalardan o'zi uchun maqbulini tanlashi mumkin. (Strategiyalardan birining tanlanishi o'qituvchining kasbiy tayyorgarligi, shaxsiy qiziqishlari, shuningdek, mavjud hayotiy vaziyatlarga bog'liq).

<sup>3</sup> Концепция подготовки учителя начальных классов (в педагогических институтах и училищах) [Текст] / Сост. А.Е.Дмитриев, М.Р.Львов // Начальная школа. - 1990. - №7. — С.64-69

Pedagogik ta'limda mantiqiy kompetensiyalarga asoslangan yondashuvni amalga oshirish uning asosiya maqsadiga erishishiga ko'maklashadi, bu esa— kichik maktab yoshidagi o'quvchilarni pedagogik qo'llab-quvvatlash orqali ularning yashirin aqliy qobiliyatlarini (zukkolik, nutqiy ravonlik va mantiqiy fikrlash)ni namoyon qilish imkoniyatlarini rivojlantirishga yordam beradi.

Aynan shuning uchun ta'lim muassasalarining pedagogik jamoalari, metodik xizmatlarining rahbarlari faoliyatida o'qituvchilar tomonidan kiritilayotgan pedagogik innovatsiyalarni tahlil qilish va baholash, ularni muvaffaqiyatli ishlab chiqish va qo'llash uchun zarur sharoitlarni yaratish, umumta'lim maktabalarining bozor munosabatlariga o'tishlari, ularning raqobatbardoshligi haqiqiy vaziyatni yaratadigan yangi turdag'i, jumladan, nodavlat ta'lim muassasalarini yaratish muhim yo'nalishga aylanmoqda. Innovatsion faoliyatni shaxsiy toifa, ijodiy faoliyatning yaratuvchilik jarayoni va natijasi sifatida talqin qilish mumkin.<sup>4</sup>

N.Muslimov va M Mirsolievalarning fikrlariga ko'ra ham ijtimoiy faol ta'limda, yuqori natijalarga erishishga intiluvchi, pedagoglik kasbini tanlash va egallash ishida jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiquvchi shaxsni shakllantirishda kreativ kompetensiyalar muhim omil sifatida qaraladi.<sup>5</sup> Mantiqiy fikrlash ham aynan ushbu kreativlikni yuzaga chiqaruvchi omildir. Zero insonda avvalo tafakkur va mantiqning borligi voqeа-hodisalar zanjirida aniq va to'g'ri qaror qabul qilish imkonini beradi.

## MUHOKAMA

Aytish o'rinniki, zamonaviy ta'limda yangicha metodik yondashuvlar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish jarayoni – muassasaning ta'limiy va ijtimoiy faoliyatining ajralmas qismidir, mantiqiy metodik urg'uning bunda mujassam bo'lishi esa bo'lg'usi pedagoglarning umumkasbiy o'ziliги va pedagogik imidjini fikran anglash layoqatini shakllantirishning ochiq, o'zgaruvchan, demokratik sohasidir.

Shundan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari bizning nazarimizda quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- o'quv-tarbiyaviy faoliyatni rejalashtirishda ta'lim sharoitlariga bog'liq holda integratsiya, xilma-xillik va moslashuvchanlik mexanizmlari mazmunini motivatsion, zamonaviy universal ta'lim, integratsion yondashuv, xalqaro hamkorlik tamoyillari asosida optimallashtirishning ilmiy - amaliy asoslarini aniqlash;
- Oliy ta'lim tizimida ish reja va kalendar rejasini mazmunini xalqaro me'yorlar va davlat talablarini implemintatsiya qilish asosida integratsiyalashtirilgan zamonaviy axborot ta'lim bazasini ishlab chiqish;
- o'quv faoliyati jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish orqali o'quv-metodik resurslarning samaradorligini aniqlash;
- o'quv faoliyati natijalariga ko'ra bo'lg'usi boshlang'ich sinf o'qituvchilarining bilim, malaka va ko'nikmalarining sifat va samaradorligini innovatsion baholash tizimini aniqlash.

Bo'lajak o'qituvchiga kasbiy moslashishda professional yordam kerak, chunki muvaffaqiyatizliklarni boshdan kechirish, o'z qo'rquvini haddan tashqari oshirib yuborish, mas'uliyatni anglash — bularning barchasi pedagogik mas'uliyatdan qo'rqib, umidsizlikka vamaktabni tark etishga olib kelishi mumkin. Bunda bo'lajak pedagogi qo'llab-quvvatlashi, unga manzilli yordam ko'rsatishi zarur.

<sup>4</sup> D. Elmuratova. Theoretical Basis of Training Future Teachers to Innovative Professional Activities. Eastern European Scientific Journal. Б 194-197. Germaniya. Ausgabe 1-2017.

<sup>5</sup> Muslimov N., Usmonboeva M., Sayfurov D., To'raev A. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. –T.: Sano-standart, 2015. –120 bet

Pedagoglar agarda o'zlarining kreativ o'qitish metod va strategiyalarini qo'llash (ya'ni keng ko'lama o'yash va kreativ fikrlash jarayonini tashkil etish)da katta samaradorlikka erishishni istasalar, buni bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini singdirishlari va o'z vazifalarini mantiqan anglagan holda sidqidildan bajarishlari lozim. Qolaversa, "mantiqiy mazmun va xarakterga ega muhitdagina bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'rganayotgan mavzuning mazmuni, o'quv axborotlar o'rtasidagi o'zaro aloqani tushunish imkoniyatiga ega bo'ladi va bu haqida fikrlashni boshlashadi".<sup>6</sup>

Tizimli yo'naltirilgan tadqiqot ishlarda innovatsion faoliyat logik paradigmasing shaxsiy, boshqaruvchi-kommunikativ va natijali tizimostilarining tahlilida ochib beriladi. Shaxsning innovatsion imkoniyatini yangi tasavvurlar va g'oyalarni ishlab chiqish, asosiysi ularni amaliy shakllarda loyihalash, modellashtirish ijodiy qobiliyati shaxsning yangiga, shaxs bag'rikengligiga, tafakkurining moslashuvchanligiga bog'liq. Madaniy-estetik rivojlanganlik va ma'lumotlilik o'z faoliyatini takomillashtirishga tayyorlik, ichki, mazkur tayyorlikni ta'minlovchi vosita va metodlarga asoslanadi, rivojlangan innovatsion ong (innovatsion faoliyatning an'anaviyga ko'ra qimmati, innovatsion ehtiyojlar, innovatsion xulq motivatsiyasi) kabi asosiy ko'rsatkichlar bilan bog'laydilar.<sup>7</sup>

Shunday ekan bo'lajak kadrlarni mantiqiy fikrlash qobiliyati teran sshaxs sifatida rivojlantirishning metodik holati va amaldagi vazifalardan kelib chiqib o'qituvchi ijodiy imkoniyatining rivojlanishi prinsiplari quyidagilar deb hisoblanadi:

- pedagog shaxsining qadrlilagini tan olishi prinsipi;
- "o'zligini" ijodiy tushunish prinsipi;
- kompensatsiya prinsipi;
- individuallashtirish prinsipi; ziddiyatlilik prinsipi; axloqiy bog'liqlik prinsipi;
- kreativ ilhomlanish prinsipi;
- refleksiya prinsipi; tizimni tanlash prinsipi.

## XULOSA

Mantiqiy fikrlash yordamida innovatsion faoliyatni amalga oshirish bosqichida refleksiya ikki jarayon bilan birga kechadi:

- 1) o'qituvchi xuddi bashorat bosqichiga takroran qaytadi va u yerda konsepsiyaning alohida tashkil etuvchilarini kuzatadi;
- 2) ikkinchi jarayon o'z faoliyatiga refleksiya bilan, ya'ni maqsadni amalga oshirish jarayoni bilan bog'liq: o'qituvchi imkoniyatlari va tashqi sharoitlar bog'liqligining tahlili (mantiqiy refleksiya) sodir bo'ladi, innovatsiyalar, malakalar, pedagogik amallar, mazmun tahlil etiladi. Ko'rib chiqilgan interfaol yoki yangicha imkoniyat o'qituvchi innovatsion faoliyati jarayonlari, hatti-harakatlari va xulqini belgilaydi. Mantiqiy fikr mulohaza va mo'tadil kreativ xulqi asosida pedagogik amaliyot sharoitlarida amalga oshiriladigan mukammallik ideali va qiymati yotadi. Bunday xulq muloqotda, o'qitishda, o'z-o'zini belgilashda, mantiqiy-refleksiv jarayonlar kechishida va boshqalarda namoyon bo'ladi.

## Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Azizzxo'jayeva N. O'qituvchi tayyorlashning pedagogik texnologiyasi. –T.: TDPU, 2000.
2. Asqarova O'.M. Pedagogika. Oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik/. O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. – T.: "Talqin", 2008.

<sup>6</sup> Misirova N Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijodiy kasbiy faoliyatga tayyorlashning ilmiy-nazariy asoslari / Monografiya T: "Ilm-ziyozakovat" nashriyoti, 2020. -124 b

<sup>7</sup> Dilrabo Elmuratova (2021). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA INNOVATSION FAOLIYATNING SHAKLLANGANLIK DARAJASI. Scientific progress, 2 (8), 220-223.

3. Maftuna, G. (2021). Effective ways to Use Triz (The Theory of Inventive Problem Solving) in Elementary School. Pindus Journal of Culture, Literature, and ELT, 9, 85-88.
4. Ganieva, M. (2023). EMPOWERING LOGICAL THINKING IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH TIPS TECHNOLOGY. In Academic International Conference on Multi-Disciplinary Studies and Education (Vol. 1, No. 12, pp. 62-63).
5. Maftuna, G. (2023). SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS OF METHODICAL TRAINING OF PRIMARY SCHOOL TEACHERS FOR LOGICAL THINKING. Modern Science and Research, 2(10), 91-94.
6. Ganiyeva, M. (2023). INNOVATSION TA'LIM TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA, O'QUVCHILARNI MANTIQIY FIKRLASHGA O'RGATISHNING, SHAKL, METOD VA VOSITALARI. Scienceweb academic papers collection.
7. Ganiyeva, M. (2024). PEDAGOGICAL CONDITIONS FOR METHODICAL PREPARATION OF FUTURE ELEMENTARY SCHOOL TEACHERS FOR LOGICAL THINKING. Science and innovation, 3(B5), 178-182.
8. Abduqodirov A.A., Astanova F.A., Abduqodirova F.A. "Case-study" uslubi: nazariya, amaliyat, tajriba. – T.: "Tafakkur qanoti" nashriyoti, 2012.
9. Abdullaeva X.A. Mashg'ulotlarda faol ta'lif usullaridan foydalanish. – Farg'ona: FarDU, 2008.
10. Avliyakulov N.X., Musaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar. – T.: "Fan va texnologiyalar" nashriyoti, 2008.
11. Azizzxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik maxorat. – T.: "O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi" nashriyoti. 2006.
12. Boymurodova G., Tosheva N.Ta'lif tizimini modernizatsiyalashtirish jarayonida o'qituvchi kasbiy kompetentligini uzluksiz rivojlantirish davr talabi\ Uzluksiz ta'lif .-2012.